

## MILLIY URF-ODATLAR VA AN'ANALARNING YOSHLAR ONGI VA TAFAKKURIDAGI O'RNI

*Yorqulova Mohinur Shokir qizi*

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarning ongiga milliy urf-odat va ana'analarimizning qay darajada foydali eanligi haqida so'z boradi. Milliy urf-odatlar bizning oyamiz.

**Kalit so'z:** "Milliy istiqbol", "Milliy mafkura", "milliy dastur", passport

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlarni milliy an'analar ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratilgan. Mamlakatimiz istiqbolga erishgach, xalqimiz, jamiyatimizning kelajagini ifodalovchi "Milliy istiqbol", "Milliy mafkura", "milliy dastur" kabi hayotiy ehtiyojlar vujudga keldi. Taraqqiyotning milliy modelini ta'minlashda, real hayotga jalb qilib, dunyo mamlakatlari orasida o'z so'zi bor davlatga aylantirishda mustahkam asos va vosita bo'lib xizmat qilgan zamin bu shubxasiz, milliy urf-odat, an'analar hisoblanadi. Urf – odat, milliy qadriyat, yoshlar ongiga, salohiyati va kelajagiga qanchalik ta'sir etayotganini bugungi kunda o'z ko'zimiz bilan ko'rib kelmoqdamiz.

Ayni damda O'zbek yoshlari oldida turgan katta muammolardan biri qadriyat sifatida talqin etilayotgan urf - odatlarni inkor etib, zamon talabiga mos yashash bo'lib kelmoqda. Ya'ni qadriyatlarimizni eskilik sarqiti, kerak emas urf - odat, ortiqcha rasm - rusum sifatida qabul qilib chetdan kirib kelgan an'analarni o'zbeklashtirishga harakat qilinayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Aynan qayerda o'qiganim yodimda yo'q chet elda yangi tug'ilgan chaqaloqning sochi olingani va chaqaloq tug'ilgandan sochlari olinsa miyya faoliyati va organizmiga katta foydali ahamiyati borligi haqida o'qigandim. Albatta buni Yevropa olimlari kashf qilmagan, oddiygina musulmon an'ana va marosimlarida chaqaloq tug'ilganda nima qilinishi kerak bo'ladigan bo'lsa xuddi shu narsalar qilingan. Vaholangki, tibbiyot sohasida dunyo bilgan Yevropa davlatlari ham oddiygina musulmon xalqining urf - odatlari oldida ojizdir. Men bu bilan demoqchimanki, soch olish marosimi ham bu bizning ota bobolarimizdan qolgan urf - odatdir.

Xuddi shunday, Xalqimizda: "Qari bilganni pari bilmaydi" degan maqol ham bejiz emas. Yana bir misol keltirib o'taman, oddiygina to'y marosimini oladigan bo'lsak eng pok va eng toza musulmon xalqi qadraydigan marosim - to'y marosimidir. Azaldan bobo buvilarimiz nikoh pok va buzib bo'lmaydigan, Alloh tomonidan

buyurilgan farz ekanligi xox qiz farzand bo'lsin xox o'g'il farzandga yoshligidan uqtiriladi. Shuning uchun ham dunyodagi arjimler soniga nisbatan yurtimizda pas ko'rsatgichni ko'rsatadi. Zero ,bu milliy qadriyatlarimiz bilan bog'liqdir. Hayotimizning qaysi sohasini olmaylik milliyligimiz ko'rinib turadi: milliy me'morchilik, milliy turmush tarzi, milliy musiqa, milliy liboslar, milliy hunarmandchilik, milliy tarbiya, milliy kurash va hokazolar. Bundan ayon bo'ladiki, insonparvar, milliy an'analar rivoji jamiyat taraqqiyotining muhim va birlamchi omili bo'lib kelgan. Va bundan keyin ham xuddi shunday davom etadi. Mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotida o'z yo'lni tanlashi va barcha sohalarda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari darajasiga yetib olishdek ezgu maqsadni amalga oshirish har tomonlama yetuk kadrlar hamda barkamol insonlarni tarbiyalash masalasini hal etish lozimligini davlatimiz rahbari qayta-qayta ta'kidlamoqdalar. Bu esa yoshlarni vatanparvar, o'z burchiga sodiq va har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifaning yechimini talab qiladi.

Axloqan pok va yetuk insonlarni tarbiyalash masalasini muvaffaqiyatli hal etishda xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy boyliklari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy meroslari va tarixiy-tarbiyaviy tajribalarni o'rganib chiqish, ularning yutuqlarini hayotga, ta'lim-tarbiyaga tadbiiq etishning ahamiyati kattadir.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov "Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr - oqibat, insof, sabrtoqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim"deb ta'kidlagan edilar. Har bir xalqning tarixi, tili, iqtisodiy yashash tarzi bilan bir qatorda mazkur xalqning urfodatlari va marosimlari ham uning millatligini ko'rsatuvchi o'ziga xos passporti sanaladi. Urf - odat, marosimlar esa asrlar bo'yi davom etib, milliy an'analarni shakllantiradi.Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, milliylikimiz bor ekan millat yashaydi.Hech qanday kuch bizni o'zligimizdan ayirolmaydi.

#### **Foydalanlgan adabiyotlar:**

1.<https://doi.org/10.5281/zenodo>

